

## PRIMATLAR (PRIMATES ) TURKUMI . PRIMATLARNING ASOSIY YASHASH MUHITLARIGA MOSLANISHLARI MAVZUSIDA ADABIYOTLAR TAHLILI

**Durdona Bahtiyorovna Ergasheva**

Andijon davlat pedagogika instituti biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

**Durdona Donyorbekovna Mirzaarapova**

Andijon davlat pedagogika instituti biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Primatlar turkumi mavzusida adabiyotlar tahlili bo‘lib , unda shu turkumning barcha xususiyatlari, filogeniyasi, hayotiy jarayonlari , yashash tarzi va yashash mihitiga moslanishlari,haqida ma’lumotlar keltirilgan. Har bir adabiyotdan olingan ma’lumotlar jamlanmasi yoritilgan.

**Abstract:** This article is an analysis of the literature on the topic of the primate genus, which provides information about all the features, phylogeny, life processes, lifestyle and adaptations to the habitat of this genus. A set of data from each literature is highlighted.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой анализ литературы по теме рода приматов , в которой представлена информация обо всех особенностях, филогении, процессах жизни , образе жизни и приспособлениях к среде обитания этого рода. Освещается совокупность данных из каждой литературы.

**Kalit so‘zlar:**”birinchilar”, chala maymun, haqiqiy maymun, *prosimial*, *simial*, *gorilla* *shimpanze*, *sodda aql idrok*, *avstrolipitek*.

**Key words :** "primitives", proto ape, True ape, *prosimial*, *simial*, *gorilla*, chimpanzee, *simial*, *australopithecus*.

**Ключевые слова :** "примитивы", протообезьяна, настоящая обезьяна, полуобезьяна, обезьяна, горилла, шимпанзе, простой, здравый смысл, австролопитек.



Primatlar eng yuksak tuzilgan sutemizuvchi hayvonlardir.Bu turkum vakillari tuzilishi jihatidan odamlarga o‘xshab ketadi.Tabiatda primatlardan odamsimon maymunlar eng yirigi hisoblanadi.Primatlar turli ozuqalar bilan oziqlanadi. Ularning ozig’i va yashash tarzi yashash muhitiga birmuncha aloqador hisoblanadi.

Primatlar Osiyoning yuqori bo‘r davrida sodda hasharotlardan kelib chiqqan .Shu yerdan ular boshqa qit’alarga tarqalgan.Hozirgi vaqtda mazkur turkumga 190 ga yaqin tur kiradi .[1:342]

Primatlar , ya’ni maymunlar - sutemizuvchilar orasida eng yuksak tuzilgan hayvonlar (“primatlar” so‘zi ham “birinchilar” ma’nosini anglatadi.Bu turkumga 200 dan ortiq tur kiradi.[2:194] .Bundan ko‘rinb turibdiki primatlar turkumi vakillari hozirgi kunga kelib ortib bormoqda .

Primatlar turkumi ikkita kenja turkumga :chala maymunlar ,haqiqiy maymunlarga bo‘linadi.[3]

Odatda primatlar turkumi ikkita kenja turkumga ;tuban primatlar (*prosimiae*) va yuqori primatlar (*simial*) kenja turkumlariga ajraladi.[1:342-344]



Maymunlarning barmoqlari , junsiz kafti va tovoni asosiy tuyg‘u vazifasi hisoblanadi.[2:194] Maymunlarda barmoq,kaft ,tovon va yuz sohalarida junlarning bo‘lmasligi ularda sezgining rivojlanishidan dalolat beradi va shu bilan birgalikda junlarning ushbu sohalarda bolmasligi bilan boshqa sut emizuvchi hayvonlardan farqlanib, qisman odamlarga oxshaydi.

Ularning bosh miyasi boshqa sutemizuvchilarnikiga nisbatan ancha yirik.Bosh miya katta yarimsharlarida burmalarning ko‘p bo‘lishi tufayli fe‘l-atvori ham murakkab va xilma-xil bo‘ladi.[2:194]

Ularning xotirasi kuchli bo‘lib sodda mehnat qurollarini yasash va ulardan foydalanishni biladi.[2:195]

Bosh miyasining usti tekis yoki egatchali[1:343]

Kuzatishlar natijasida shimpanze cho‘par yordamida asalarilar uyasiga kiradigan teshiklarni kengaytiradi,daraxtdan sindirib olingan novda yordamida tor teshiklardan hasharotlarni kovlab oladi,mayda cho‘plar yordamida tishlarini tozalaydi,tovush va imo-ishoralar yordamida o‘zaro muloqot qiladi.[2:195] O‘tkazilgan tajribalarda shimpanze bir necha yashiklarni ustma-ust taxlab, shiftga osib qo‘yilgan bananni olgan, uchta buyumdan boshqa ikkitasiga o‘xshaganini tanlab olgan .Tabiatda gorillalar mayda cho‘plarni sindirib olib, tish kovlaganliklari yoki yassi toshlarni tanlab olib, ularning ustida yong‘oq chaqishgani ma‘lum. Bu kuzatishlar hayvonlar ham turli buyum va hodisalar o‘rtasidagi oddiy bogianishni tushunishlari, ya’ni ularda sodda aql-idrok mavjudligini ko‘rsatadi.[4:145]

Bundan ko‘rinib turibdiki primatlarning dastlabki vakillaridan hozirgi maymunlarga qadar bosh miyya faoliyati birmuncha taraqqiy etib kelmoqda va xulq-atvori murakkablashmoqda .

Ularning barmoqlari uzun ,ikkala oyog‘idagi bosh barmoqlari boshqa barmiqlariga qarama qarshi qo‘yilgan .Barmoqlarning bunday joylashishi ularga shoxlarni mahkam ushlab turishga imkon beradi .Ularning barmoqlari boshqa

hayvonlarniki singari changal emas yassi tirnoqlar bo'ladi.Oyoqlari yurish bilan birgalikda oziqni ushlab, junlarini tozalash va tarash vazifasini bajaradi .[2:194] Birinchi barmog'i boshqa barmoqlariga nisbatan bir muncha qarama-qarshi joylashgan , oyoqlari tovonda yuruvchi .Barchalarida birinchi barmoq boshqalariga nisbatan qarama-qarshi emas. Aksariyat turlarining barmoqlaridagi tirnoqlar odam tirnog'iga emas , balki hayvon tirnog'iga o'xshaydi.[1:343]

Xulosa qilib aytganda maymunlarning yashash muhit ham tashqi muhitga moslanishiga birmuncha tasir k'rsatadi. Masalan, odamsimon maymunlarda tirnoqlari odamlarnikiga o'xshash tuzilgan,tuban tuzilgan vakillarida esa hayvonlarnikiga o'xshash changal hosil qiladi.

Odam skaletining tuzilishida tik yurishga bog'liq bo'lgan o'ziga hos bir qator ozgarishlar yuzaga kelgan.Ularning umurtqa pog'onasida tabiiy egilmalar,tovonida gumbaz paydo bo'lgan, oyoq panjasining bosh barmog'I boshqa barmoqlarga yaqinlashib, tayanch vazifasini bajaradi,chanoq suyaklari ancha kengaygan . [5:230]

Avstrolipetaklar chanoq suyagining tuzilishi ikki oyoqlab harakatlanganligidan dalolat beradi.[5:231]

Keyinchalik maymunlar o'rmonlardan ochiqlikka chiqishi sababli ular tik yurishga moslashgani sayin chanoq suyaklari kengayib borgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umurtqali hayvonlar zoologiyasi. C.P.Naumov . 1984-yil
2. 7-sinf zoologiya darsligi. O.movlonov. “Ozbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2017
3. Qomus. Info onlayn ensiklopediya
4. 8-sinf Odam va uning salomatligi darsligi. O.Mavlonov , T.Tillavov, B.Aminov. “O'qituvchi “ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT 2019
5. 10-sinf Biologiya darsligi . A.G'afurov ,A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishonqulov, M.Umaraliyeva , I.Abdurahmonova . “ShARQ “ NASHRIYOT –MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT 2017
6. 11-sin Biologiya darsligi A.G'afurov , A.Abdukarimov, J.Tolipova , O.Ishankulov, M.Umaraliyeva , I.Abdurahmonova 1-nashr TOSHKENT-2018
7. Primatlar –Vikipediya